

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARIDA SPORT TURIZMIGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY VA IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Nazarov Anvarjon Tug`unboyevich

University of Business and Science

Maktabgacha-boshlang`ich ta'lif va jismoniy tarbiya kafedrasи

v.b.dotsenti p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish, turizm va madaniy meros ob'ektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda sport turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Sport turizmi, jahon turizmi, mutaxassislarini tayyorlash, sifatli ta'lif, barkamol shaxs, sog'lom turmush tarzi, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, istiqbolli yo'nalish.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham “to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish, turizm va madaniy meros ob'ektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish” ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu muhim vazifa turizmni rivojlantirish, “O'zbekistonni jahon turizmining jozibali markaziga aylantirish, yurtimizni sayyoohlar eng kup tashrif buyuradigan davlatlar qatoriga kiritishni ko'zda tutadi”. Buning uchun esa turizmnинг barcha yo'nalishlari, xususan sport turizmini ham jadal rivojlantirish, sport turizm sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish talab etiladi. Shuning uchun ham bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlashda ularning sport turizmiga doir bilimlarini oshirish, yoshlarni sport turizmi bilan faol shug'ullanishlariga erishishga qaratilgan tashkiliy-pedagogik vazifalar dolzarblik kasb etmoqda.

Insonni sayohat qilishga undaydigan motivlarning asosiysi – bu jismoniy motivatsiya bo'lib, u tana va rujni tiklashga, sog'liq maqsadlariga, zavq va sportga qaratilgan. Hozirgi vaqtida katta qiziqish uyg'otayotgan turizm turiidan biri – bu sport turizmi hisoblanadi.

Sport turizmi odattagi turistik muhitdan farqlangan holda sport tadbirlarini tomosha qilish yoki ishtirok etishni o'z ichiga olgan sayohatni anglatadi. Sport turizmi

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

jahon sayyohlik sanoatining eng tez rivojlanayotgan sektori bo'lib, uning qiymati 7,68 milliard dollarni tashkil etadi.

U kurortlari yaxshi rejalashtirilgan va integratsiyalashgan kurort majmualari bo'lib, ularning asosiy yo'nalishi va bosh strategiyasi sport yoki sog'lomlashtirishdir. Ko'pgina hollarda, ushbu dam olish markazlari sport turistiga yuqori sifatli ob'ektlar va xizmatlarni taklif qiladi. Shu o'rinda ta'kidlashimiz kerakki, sport turizmi zaruriy baza mayjudligini talab etadi. Jumladan, turli inventarlar, maxsus trassa va yo'llar, sport maydonchalari, sport asbob-uskunalarini va boshqalar. Sport sayohatlariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu dam oluvchilarning xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Sport sayohatlari, safarlarning maqsadiga bog'liq ravishda 2 turga bo'linadi: aktiv va passiv. Birinchi holatda bu qandaydir sport turi bilan shug'ullanish hisoblansa, ikkinchi holatda shunchaki ishtirok etish hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining keng qatlamlarini sport bilan shug'ullanishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga jalb etish, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, oliy sport mahorati sohasida mamlakatimizning xalqaro sport maydonida munosib ishtirokini ta'minlashga qaratilgan yagona siyosatni amalga oshirishdan iborat. Yurtimizda xalqaro sport musobaqalarini o'tkazish orqali sport turizmini keng rivojlantirish ko'zda tutilgan. Olimpiya, Paralimpiya va Osiyo o'yinlari, jahon, Osiyo chempionatlari va boshqa xalqaro musobaqa va turnirlarda muvaffaqiyatli ishtirokni ta'minlash uchun istiqbolli sportchilarni saralash, tayyorlash va mahoratini oshirib borish, ular orasidan mamlakat terma jamoalari sifatli sport zaxirasi va tarkibini shakllantirishning samarali tizimi yaratiladi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda sport turizmi kam rivojlangan sohadir. Shuning uchun mamlakatimizda sport turizmini rivojlantirishning yana bir muhim omillaridan biri – bu sport turizmi borasida yuqori sifatli ta'lim berish va mutaxassislar tayyorlashdir. Sport turizmi sohasida ta'lim jarayonini tashkil qilish hozirda tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri ham hisoblanadi.

Sport turizmini rivojlantirishning muhim istiqbolli yo'nalishi bu, avvalo, kelajakda ushbu soha bo'yicha xizmat qiladigan malakali kadrlarni tayyorlash va ular orqali xalqimiz turizm madaniyatini faol targ'ib qilishdir.

O'zbekiston Respublikasida sport turizmini hozirgi bosqichda rivojlantirishning asosiy ob'ekti yoshlardir. Yoshlarning sport turizmi etikasi, sport turizmi maqsadlari borasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, ularning sport turizmi borasidagi bilimlarini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish sport turizmi madaniyatini rivojlantirishning muhim omilidir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Xulosa qilib aytganda, sport va turizm uyg'unligi sog'lom bo'lishning eng yaxshi usulidir. Bugungi kunda har bir insonga mos keladigan, tanlashi uchun juda ko'p turli xil sport turlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni. <https://aza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-oliv-talim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019>
2. 2019-2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish kontseptsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2019 yil 14 fevral.
3. Umarov, A. A., & Umarova, Z. U. (2023). Talaba-yoshlarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishda milliy va harakatli o'yinlarning o'rni. Scientific progress, 4(1), 260-265.
4. Саруханов, А. А., Азизов, М. А., & Муминов, Ш. И. (2022). Исследование функциональных показателей юных пловцов. Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations, 1-6.
5. Urinboeva, U. Z., Burkhanovich, D. B., & Ismailovna, Y. F. (2022). New technologies for the development of strength qualities Youth. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 220-224.
6. Akramjonovich, Y. I., & Ismailovna, Y. F. (2023). Development and Improvement of The Motor Qualities of Volleyball Players Based on The Educational and Training Process. Journal of Advanced Zoology, 44(S6), 1499-1503.
7. Ilyosovich, M. S. (2023). Improving physical education of students with fatigued health. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(10), 32-35.
8. G'ayratovich, S. S., & Akramjonovich, Y. I. (2023). Development principles of young sportsmen's strength by updated technologies. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(12), 32-34.
9. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "The importance of functional training in the athlete training system." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 261-264.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

10. Toxirjonovich, Arabboev Qaxramon, et al. "THE ROLE OF SPORT IN PEOPLE'S HEALTH." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
11. Arabboev, Q. T. "Sportchilarni tayyorlashda funksional tayyorgarlikning ahamiyati: 10.53885/edinres. 2022.75. 29.012 QT Arabboev." Научно-практическая конференция. 2022.
12. Tohirjonovich, Arabboev Qahramon. "SPECIFIC FEATURES OF THE APPROACH TO STUDENTS IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS ON THE BASIS OF THE PRINCIPLE OF INDIVIDUALIZATION." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 269-273.
13. Араббоев, К. Т. "Особенности адаптации студентов высшей физкультурно-педагогической школы к учебной и спортивной деятельности." Педагогические науки 5 (2011): 128-131.
14. MURATOVA, GULIYA RIMOVNA, RUZEL MULLAKHMETOVICH KHABIBULLIN, and AYGUL URALOVNA BAKIROVA. "COORDINATION ABILITIES OF POWERLIFTERS." Будущее науки-2019. 2019.
15. Rashitovna, Muratova Gulnara. "Problems of Using the Technology of Integrated Modular Training of Students in Physical Education Classes at The University." Genius Repository 26 (2023): 104-106.
16. Муратова, Г. Р. "ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." Science Promotion 4.1 (2023): 30-35.
17. Муратова, КГПИ Г. "АКТИВИЗАЦИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЁМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОРЕВНОВАТЕЛЬНО-ИГРОВОГО МЕТОДА." Science Promotion 4.1 (2023): 24-29.
18. Муратова, Гулнара, and Вагаршак Данелян. "ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В СРЕДНИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.22 (2023): 23-27.
19. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir, Gafurov Abduvohid Makhmudovich, and Yuldasheva Jamilakhan Mukhtorovna. "The role of gymnastics in the educational process." Open Access Repository 8.12 (2022): 5-8.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

20. Mukhtorovna, Yuldasheva Jamilakhan. "EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS." Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697.
21. УПРАЖНЕНИЯХ, САМОКОНТРОЛЬ В. ФИЗИШЕСКИХ. "JISMONIY YUKLAMALARDA O'ZINI-O'ZI NAZORAT." НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021 1: 722.
22. Умарова, Ф. А., З. А. Умарова, and А. А. Умаров. "Повышение эффективности обучения за счет использования электронного обучения в классе." Библиотека в пространстве современной культуры. 2020.
23. Умаров, АА-К. "СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПРЕДСТАРТОВОЙ МЫШЕЧНОЙ РАБОТЫ СПОРТСМЕНА КАК СПОСОБ ПОДГОТОВКИ К УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫМ ЗАНЯТИЯМ И СОРЕВНОВАНИЯМ." ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ В СИСТЕМЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ. 2021.
24. Artikovna, Abdurahmonova Malohatkhan. "USE OF INTERACTIVE METHODS AND THEIR EFFECTIVENESS IN TEACHING CHEMISTRY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.2 (2023): 507-510.
25. Умаров, Абдусамат Абдумаликович. "Феноменологическое Поле Гендерной Идентичности Спортсменок." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3.12 (2022): 15-18.